

QORAQALPOG'ISTONDA RAQS SAN'ATINING SHAKLLANISHI VA BALET JANRINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI**Qaypanov Azizbek Utesh o'g'li**

O'zbekiston davlat konservatoriyasi

Nukus filiali "Musika san'ati" fakulteti "cholg'u ijrchiligi" kafedrası
xalq cholg'ulari mutaxassisligi talabasi.**G. Kamalova**

Ilmiy rahbar.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21822214>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qoraqalpog'istonda raqs san'atining paydo bo'lishi, tarixiy ildizlari va taraqqiyot bosqichlari tahlil qilinadi. Xususan, milliy raqslarning shakllanish jarayoni, ularning madaniy merosdagi o'rni hamda balet janrining mintaqaga kirib kelishi va rivojlanish omillari yoritiladi. Tadqiqotda tarixiy manbalar, san'atshunoslarning ilmiy izlanishlari hamda zamonaviy ijodiy jarayonlar tahlili asosida mavzuga ilmiy yondashuv berilgan.

Kalit so'zlar: raqs san'ati, milliy raqslar, balet janri, madaniy meros, san'at tarixi, ijodiy jarayon, koreografiya, san'atshunoslik.

Аннотация. В данной статье рассматриваются возникновение и развитие танцевального искусства в Каракалпакстане, его исторические корни и этапы эволюции.

Особое внимание уделено процессу формирования национальных танцев, их роли в культурном наследии, а также проникновению и развитию жанра балета в регионе.

Исследование основано на анализе исторических источников, научных работ искусствоведов и современных творческих процессов.

Ключевые слова: танцевальное искусство, национальные танцы, жанр балета, культурное наследие, история искусства, творческий процесс, хореография, искусствоведение.

Abstract. This article examines the emergence and development of dance art in Karakalpakstan, exploring its historical roots and stages of evolution. Particular attention is given to the formation of national dances, their role in cultural heritage, and the introduction and growth of the ballet genre in the region. The study is based on the analysis of historical sources, scholarly research in art studies, and contemporary creative processes.

Keyword's: dance art, national dances, ballet genre, cultural heritage, art history, creative process, choreography, art studies.

Kirish. Raqs san'ati insoniyatning eng qadimiy badiiy ifoda vositalaridan biri bo'lib, u dastlab diniy marosimlar, hosil bayramlari va urf-odatlar tarkibida shakllangan. Qadimgi Sharq, Misr, Yunoniston va Markaziy Osiyodagi ilk jamoaviy raqs namunalari, odatda, insonning tabiat va hayot hodisalariga bo'lgan estetik munosabatini ifodalagan.

Markaziy Osiyo xalqlari, jumladan, qoraqalpoq xalqining raqs madaniyati ham asrlar davomida shakllanib, boy folklor an'analari, kuy va qo'shiqlar bilan uzviy bog'liq holda rivoj topgan. Qoraqalpoq milliy raqslari o'ziga xos harakatlar, liboslar va musiqiy jo'rlik bilan ajralib turadi. Ular xalqning turmush tarzi, tarixiy taqdiri va ruhiy dunyosini aks ettirgan.

Balet san'ati esa Yevropa sahna madaniyatida XVI asr Italiya va Fransiya yuzaga kelib, keyinchalik rus klassik baleti orqali butun dunyoga keng tarqaldi.

O'zbekiston hududida balet san'ati XX asrning o'rtalarida shakllana boshladi va Toshkent hamda boshqa yirik shaharlarda balet truppalari tashkil etildi. Qoraqalpog'istonga balet san'ati 1960-1970-yillarda kirib keldi desak yangilishmagan bo'lamiz.

Bu jarayon Qoraqalpog'iston san'at hayotiga yangi sahna shakli, yuksak texnika va boshqa xalqlarning badiiy tajribasini olib kirdi. Milliy raqs an'analari va balet texnikasining uyg'unlashuvi esa mintaqah sahna san'atining yangi bosqichini boshlab berdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Qoraqalpog'istonda raqs san'ati tarixining shakllanishi va balet janrining kirib kelish jarayonini yoritishda quyidagi metodologik yondashuvlardan foydalanildi:

Tarixiy-tahliliy metod – Qoraqalpog'iston milliy raqslari va balet san'atining paydo bo'lishi hamda rivojlanish bosqichlarini tarixiy manbalar, arxiv hujjatlari va san'atshunoslikka oid ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilindi hamda quyidagicha sahna san'ati tahlili – teatr arxivlari, fotosuratlar, videoyozuvlar va tanqidiy maqolalar orqali baletning Qoraqalpog'istonda namoyish etilgan ilk asarlari va ijrochilar ijodini o'rganish kabi mazkur metodologik asoslar tadqiqotning tarixiy aniqligi, ilmiy asoslanganligi va mintaqaning san'at jarayonlarini kompleks yoritishga xizmat qiladi.

Asosiy qism. Qoraqalpog'iston xalqining raqs san'ati qadim zamonlardan xalq marosimlari, urf-odatlar va bayramlari bilan chambarchas bog'liq holda shakllangan. Dastlabki raqsar hosil yig'imi, tabiat hodisalari va ijtimoiy hayot jarayonlariga bag'ishlangan bo'lib, ular xalqning badiiy dunyoqarashi va estetik didini ifodalagan.

XX asrning birinchi yarmidan boshlab Qoraqalpog'istonda raqs san'ati sahna madaniyatining ajralmas qismiga aylandi. Nukusdagi Qoraqalpog'iston davlat musiqali va drama teatri hamda madaniyat uylari sahnalarida milliy raqs ansambllari faoliyat boshladi. Shu davrda milliy raqsar sahnaviy shaklga keltirilib, kompozitsiyasi, sahna plastikasini boyitish va liboslarni badiiy takomillashtirish ishlari olib borildi. Bu esa raqs san'atining ommaviylashishi va professional darajaga ko'tarilishida muhim qadam bo'ldi.

1939-yilda kompozitor F. Tal musiqasi asosida baletmeysterlar A. Tomskiy, M. Turg'unboyeva va Usta Olim Komilov hamkorligida "Shoxida" baleti sahnalashtirildi. Ushbu spektakl o'zbek balet san'ati rivojida muhim bosqich bo'lib, truppaning yirik ijodiy yutug'iga aylandi.

"Shoxida"dan so'ng teatr repertuari milliy va jahon sahna asarlari bilan boyidi. Milliy baletlar orasida Ye. Bruslovskiyning "Gulandom" va S. Vasilenkoning "Oq bilak" asarlari muhim o'rin tutdi. Jahon mumtoz repertuaridan esa J. Bizening "Karmen", P. I. Chaykovskiyning "Qarg'a motkasi" operalari hamda B. Asafevning "Bog'cha saroy favvorasi", L. Delibning "Koppeliya" baletlari sahnaga olib chiqildi.

Bu davr teatr san'atida ijodiy yuksalish davri bo'lib, milliy baletlar jahon klassik asarlari bilan uyg'unlashtirildi, repertuar kengaydi va yangi sahna uslublari shakllandi.

Balet san'ati Qoraqalpog'istonga XX asrning ikkinchi yarmida, ayniqsa 1960-1970-yillarda kirib keldi. O'zbekistonning yirik shaharlari, xususan Toshkentdagi balet teatrlarining ijodiy ta'siri, u yerdan kelgan balet pedagoglari va artistlari Nukus sahnasida klassik balet namunalari taqdim eta boshladilar. Ilk yillarda qisqa sahna parchalaridan iborat balet raqslari namoyish qilindi, keyinchalik esa to'laqonli balet asarlari sahnalashtirildi. Bu jarayon Qoraqalpog'iston madaniy hayotiga yangi sahna janrini olib kirdi.

1970-1980-yillarda Qoraqalpog'istonda balet texnikasi va milliy raqs plastikasini uyg'unlashtirishga oid izlanishlar boshlandi.

Natijada sahna asarlarida klassik balet pozitsiyalari bilan milliy harakatlar birlashtirildi, musiqada esa klassik orkestr asboblari va milliy cholg'ular uyg'unligi yaratildi.

Bu bosqich Qoraqalpog'istonda o'ziga xos koreografik maktab shakllanishiga asos soldi.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin Qoraqalpog'istonda milliy madaniyatni rivojlantirish va zamonaviy san'atni qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor qaratildi. Nukusdagi san'at o'quv yurtlarida balet bo'yicha maxsus yo'nalishlar ochildi, yosh baletchilar va raqqoslar xalqaro festival va tanlovlarda muvaffaqiyatli ishtirok eta boshladilar. Milliy raqs va balet sintezi Qoraqalpog'iston sahna san'atining zamonaviy taraqqiyot yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etildi.

Ansambl dastlab 1956-yilda "Qo'shiq va raqs" ansambli sifatida tashkil etilgan, 1966-yilda "Ayqulash" nomini olgan, keyin esa bir necha bosqichli qayta tashkil etilish va nom o'zgarishlariga uchragan, mazkur sanamblning hozirgi nomi – "Ayqulash" Qoraqalpoq davlat milliy folklor ansambli. Uning milliy qo'shiqchilik, sozandalik va raqs san'ati bo'yicha respublika hamda xalqaro maydonda ko'plab muvaffaqiyatlarga erishgani qayd etilgan Toshdan 65 yillik faoliyati davomida ansambl nafaqat butun respublikada, balki Rossiya, Ozarbayjon, Moldova, Ukraina, Belarus, Gruziya, Armaniston, Janubiy Koreya, Xitoy kabi mamlakatlarda ham gastronom safarlar, folklor festivallarida ishtirok etib, xalqaro aloqalarni mustahkamlashga hissasini qo'shgan.

Balet (*fransuzcha: ballet; lotincha: ballo – raqsga tushaman*) – asar mazmuni musiqiy xoreografik obrazlar vositasi bilan ifodalanadigan sahna san'ati turi. O'zida san'atning dramaturgiya, musiqa, xoreografiya, tasviriy san'at kabi turlarini uyg'unlashtiradi, bu san'at turlarining hammasi alohida-alohida mavjud bo'lmay, baletning sintez markazi bo'lgan xoreografiyaga bo'ysunadi¹

Berdaq nomidagi qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatrida sahnalashtirilgan baletlari orasida "Oyjamol" — baleti 1996-yilda teatr repertuariga kiritilgan va qoraqalpoq teatrida sahnalashtirilgan birinchi balet asari sifatida tarixiy ahamiyat kasb etadi.

"Ayjamal" – qoraqalpoq milliy balet san'ati tarixida yaratilgan ilk asar bo'lib, 1997-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahrida joylashgan Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatri sahnasida ilk marotaba tomoshabinlar e'tiboriga havola etildi.

Asar musiqasi qoraqalpoq bastakori Najmaddin Muhammeddinov tomonidan yaratilgan bo'lib, sahna harakatlari va raqs kompozitsiyalari xoreograf Turdibay Xojasov tomonidan sahnalashtirilgan. Balet ikki akt va besh kartinadan iborat bo'lib, unda milliy musiqiy ohanglar, folklor motivlari hamda dramatik sahna yechimlari uyg'unlashgan.

Mazkur balet qoraqalpoq balet san'ati taraqqiyotida muhim bosqichni ifodalab, milliy raqs san'ati va klassik balet texnikasining o'zaro sintezi orqali o'ziga xos badiiy-estetik uslubni shakllantirgan.

7-iyul kuni Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatrida O'zbekiston va Qoraqalpog'iston san'at arbobi, Berdaq nomidagi davlat mukofoti laureati Q. Zaretdinovning "Nazlimxon Suluv" baleti sahnaga qo'yildi (1-rasm). Balet O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan, Qoraqalpog'iston xalq artisti Z. Nurimbetov tomonidan sahnalashtirildi. Tomoshabinlar baletni iliq kutib olib, katta qiziqish bilan tomosha qildilar². Asarda qadimiy rivoyatlar va samimiy sevgi hikoyasi balet san'ati orqali go'zal tarzda ifodalandi.

¹ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Balet>

² <https://t.me/KRteatr> saytinan alingan ma'g'liwmat.



1-rasm

Tadqiqot bo'yicha takliflar quyidagilardan iborat:

Birinchidan, tarixiy bosqichlarni tizimli o'rganish;

Ikkinchidan, Qoraqalpog'istonda raqs san'atining ildizlarini xalq og'zaki ijodi, marosim raqslari va an'anaviy bayramlar doirasida tahlil qilish

Uchinchidan, balet san'atining paydo bo'lishidan boshlab hozirgi kungacha bo'lgan rivojlanish davrlarini bosqichma-bosqich ilmiy tasniflash.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Qoraqalpog'istonda raqs san'ati va balet janrining shakllanishi ko'p asrlik milliy madaniy meros, xalq an'analari va zamonaviy badiiy yo'nalishlarning o'zaro uyg'unlashuvi natijasida yuzaga kelgan. Dastlab xalq raqslari va marosim san'ati shaklida rivojlangan bu yo'nalish XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab professional sahna san'ati darajasiga ko'tarilib, milliy xoreografiya va klassik balet elementlarini birlashtirgan yirik sahna asarlari yaratilishiga zamin yaratdi.

Balet janrining rivojlanish bosqichlari Qoraqalpog'iston san'atida madaniy uyg'unish jarayonini, xalq ijodiyoti va jahon balet an'alarining muvaffaqiyatli integratsiyasini ko'rsatadi. Bugungi kunda ham raqs san'ati va balet janrini rivojlantirish, milliy va zamonaviy uslublarni uyg'unlashtirish hamda yosh iste'dodlarni tarbiyalash bu sohaning barqaror rivoji uchun asosiy omillardan biri bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Xujasov, T. Qoraqalpog'istonda raqs san'atining rivojlanishi. – Nukus: Qoraqalpoqstan, 2005. – 112 b.
2. Muhammeddinov, N. Ayjamal: balet librettosi. – Nukus: Qoraqalpoqstan, 1997. – 56 b

Internet manbalari

3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Balet>
4. <https://t.me/KRteatr> saytidan alingan ma'g'liwmat.